
Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash – kunning dolzarb mavzusi



Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash - kunning dolzarb mavzusi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev rahbarligida 2020 yil 19 may kungi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan respublikamizning ba'zi hududlarida tadbirkorlarga berilayotgan e'tibor, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi tanqid ostiga olingan edi. Albatta, davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan fikr va e'tirozlardan har bir hudud rahbari xulosa chiqarib, bu yo'nalishda tizimli ishlar olib borishi talab etiladi. Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlarni ijrosini ta'minlash maqsadida bugun Sux tumanining birinchi sektori hududida bevosita sektor rahbari, tuman hokimi Farrux Usarov boshchiligida koronavirus pandemiyasi davrida e'lon qilingan karantin tartib-qoidalariga rioya qilgan holda hududdagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda muammolarini o'z vaqtida yechishga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha sektor binosida tadbirkorlarning sayyor qabuli o'tkazildi. O'tkazilgan sayyor qabulda Tul, Qal'acha, G'aznov, Sohibkor mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar qatnashib, tuman hokimiga mavjud muammo va kamchiliklarini bayon etishdi.



“Men bir necha yildan beri tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanaman. Bizga berilayotgan e’tibordan ro’hlanib, mahallada makaron ishlab chiqarish sexi ochib, bir necha yil faoliyat olib bordik. Lekin mana uch yildirki, sex faoliyati to’xtalib qolgan. Faoliyatimizni tiklash uchun mablag’ lozim. Bu muammo yuzasidan tumanimiz hokimiga murojaat etuvdim, sayyor qabuldan so’ng mana, o’zlari kelib, asl holatni o’rganishdi. Tuman hokimi tavsiyasi bilan endilikda men bankdan olinadigan kredit orqali faoliyatimni tiklashim mumkin. Shuningdek, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish niyatim ham yo’q emas. Albatta, berilayotgan bunday e’tibordan ro’hlanib, tumanimiz iqtisodiyotining rivojiga o’z hissamni qo’shishga astoydil harakat qilaman” - deydi G’aznov mahallasida faoliyat olib borayotgan tadbirkor Tillo Nusratulloev. Darhaqiqat, sayyor qabuldan so’ng, tuman hokimi Farrux Usarov va Bosh vazir qabulxonasining Sux tumani bo’limi mudiri Masudjon Jumaev tomonidan “Guzari Bahrigul” xususiy korxonasi tarkibida faoliyat olib borgan makaron sexi faoliyatini tiklash bo’yicha tadbirkorga zaruriy tavsiyalar berildi.



Bu o'tkazilgan sayyor qabuldan birgina misol xolos. Bugun yana 6 nafar tadbirkorlar ham o'zlarining muammo va kamchiliklari haqida tuman hokimiga murojaat etishdi. Bildirilgan barcha muammolar qisqa muddatlarda hal etilishi tuman hokimi tomonidan ta'kidlandi. Har bir murojaat qilgan tadbirkorga tuman hokimining tashrif qog'ozlari taqdim etildi. Darhaqiqat, tadbirkorlarni qiynatgan muammo va kamchiliklar ijobiy hal qilinsa, hududda rivojlanish va taraqqiyot bo'ladi. Zero, tadbirkorlikni rivojlantirish va soha vakillariga zaruriy sharoitlarni yaratib berish davlat ahamiyati darajasidagi masala hisoblanadi.



Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 maydagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5996-sonli Farmoni bilan berilayotgan imtiyozlarni tadbirkorlarning keng qatlamiga yetkazish bo'yicha ham Sux tumanida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir. Bugun bevosita Bosh vazir qabulxonasining Sux tumanidagi bo'limi mudiri Masudjon Jumaev birinchi sektor hududidagi barcha tadbirkorlar bilan uchrashib, ularga Farmonning asl maqsadi va mazmun-mohiyati bo'yicha tushuntirish ishlari olib bordi.



Albatta, qilinayotgan barcha harakatlar jamiyatimizda tadbirkorlarga keng va qulay sharoitlar yaratib berish, tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat. Berilayotgan barcha e'tibordan tadbirkorlarimiz ham ro'hlanib, Vatan rivoji va taraqqiyotiga, iqtisodiyotimizning yuksalishiga o'zlarining arziqli hissalarini qo'shishadi deb ishonamiz. Tadbirkori e'zozlangan yurtda taraqqiyot va rivojlanish bo'lishi sinalgan hayotiy haqiqat ekanligi rost gap.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-22 18:09:41